MAIŞIY TEXNIKA IMPORTIDA BOJXONA TÖLOV YUKLAMASINING FISKAL UZILIŞI VA QÖŞIMÇA FISKAL SALOHIYATNI BAHOLAŞ

Kuşmanova Mahbuba Abdunabiyevna
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toşkent axborot texnologiyalari universiteti «Kompyuter injiniringi» fakulteti «Raqamli texnologiyalar konvergensiyasi» kafedrasi katta öqituvçisi
E-mail: mahbuba.kushmanova@gmail.com; ORCID: 0009-0002-5662-3250

Annotatsiya. *Özbekistonda bojxona tölovlari tuşumi tez ösmoqda, ammo rasmiy statistika bu tölovlarni tovar segmentlari kesimida körsatmaydi. Şu sababli ayrim segmentdan qonun böyiça qança tölov undirilişi kerakligi va amalda qança undirilayotgani noma'lum qolmoqda. Maqolada maişiy texnika importi misolida şu farq, ya'ni bojxona tölov yuklamasining fiskal uzilişi oçiq statistika va normativ stavkalar asosida ölçangan. Tadqiqot maqsadi şu farqni ölçaş usulini işlab çiqiş va uning asosida segmentning qöşimça fiskal salohiyatini baholaşdir. Tadqiqotda indeks, ssenariy va qiyosiy tahlil usullari qöllanilgan. Samarali yuklama undirilgan tölovlarning sömdagi import qiymatiga nisbati sifatida, qonuniy yuklama esa boj, aksiz va qöşilgan qiymat soliği stavkalarini ketma-ket qöllab hisoblangan. Tahlil 2016-2025-yillar ma'lumotlarini hamda muzlatgiç, kir yuviş maşinasi va konditsionerning 2025-yil yanvar-iyuldagi importini qamrab olgan. 2016-2025-yillarda tölovlar dollar hisobida 3,2 baravar oşgan, samarali yuklama esa 15,6 foizdan 12,8 foizga pasaygan, tölovlarning import qiymatiga elastikligi 0,931 ga teng. Boj va aksiz stavkalarining oltita ssenariysida qonuniy yuklama 35,5-67,4 foizni taşkil etadi, demak, fiskal uziliş kamida 22,7 foiz bandga teng. Yillik hajmi 278,9 mln AQŞ dollari bölgan segment importi uçun qöşimça fiskal salohiyat minimal ssenariyda 63,3 mln dollarga baholangan. Bu samarali yuklama böyiça hisoblangan tölovlardan 1,8 baravar köp. Rasmiy diler talabi joriy etilgan 2024-yilda segment böyiça fiskal baza taxminan 11,6 mln dollarga qisqargani ham aniqlangan. Salohiyatning atigi 9,6 foizi yuklama darajasini oşiriş bilan boğliq, qolgan qismi imtiyozlar, butlovçilar importi va bojxona qiymatini kam körsatiş hissasiga töğri keladi. Natijalar asosida bojxona tölovlari va imtiyozlarni TIF TN bölimlari kesimida e'lon qiliş hamda xavflarni boşqariş tizimiga örtaça import narxlariga asoslangan narx profillarini joriy etiş taklif qilingan. Taklif etilgan usul post darajasidagi yopiq ma'lumotlarni talab qilmaydi.*

Kalit sözlar: *bojxona tölovlari, samarali tölov yuklamasi, qonuniy yuklama, fiskal uziliş, fiskal salohiyat, maişiy texnika, bojxona qiymati, imtiyozlar, ssenariy tahlili, import elastikligi.*

KIRIŞ

Bojxona tölovlari Özbekiston davlat budjetining asosiy daromad manbalaridan biridir. Ularning tarkibiga bojxona boji, import böyiça qöşilgan qiymat soliği, aksiz va bojxona yiğimlari kiradi. Prezidentning bojxona sohasi xodimlariga tabrigida 2025-yilda 76,2 trln söm bojxona tölovlari undirilgani va ularning budjet daromadlaridagi uluşi 25 foizga yetgani qayd etilgan [1]. 2016-yilda bu körsatkiç 5,6 trln söm bölgan, ya'ni tölovlar milliy valyutada 13,6 baravar, AQŞ dollarida esa 3,2 baravar oşgan. Biroq bu ösişni faqat bojxona organlari işi bilan izohlab bölmaydi. Tölovlar asosan import hajmi va valyuta kursiga ergaşib ösadi, imtiyozlar hajmi esa juda katta: 2024-

yilda 17 mingga yaqin taşqi iqtisodiy faoliyat qatnaşçisiga 49,6 trln sömlik imtiyoz berilgan [2], bu şu yili undirilgan 63,1 trln sömlik tölovlarning 78,6 foiziga teng. Demak, tuşumning umumiy hajmi bojxona xizmati qança tölovni undira olmayotganini körsatmaydi.

Maişiy texnika bu jihatdan alohida segment. Uning jami importdagi uluşi 0,55-0,78 foiz atrofida, ammo 2025-yilning yanvar-iyul oylarida faqat muzlatgiç, kir yuviş maşinasi va konditsioner böyiça 893,7 ming dona import qilingan [3]. Bu tabaqalaşgan tovar: bir xil TIF TN pozitsiyasida turli brend va modellar narxi quvvat va energiya samaradorligi sinfiga qarab farq qiladi, bu esa bojxona qiymatini tekşirişni qiyinlaştiradi. 2024-yildan PQ-15-son qaror bilan 13 turdagi tovar importida işlab çiqaruvçining vakolatli vakili yoki rasmiy diler bölişi talabi joriy etilgan [4]. PF-57-son Farmonda esa xavflarni boşqariş tizimini takomillaştiriş va bojxona köriklari uluşini kamaytiriş vazifasi qöyilgan [5]. Köriklar soni kamaygan sari nazoratni qaysi tovarlar va qaysi partiyalarga qaratiş kerakligini aniqroq biliş talab etiladi. Rasmiy diler talabi segment importi tarkibini özgartirgan bölişi mumkin, biroq uning fiskal oqibati hali baholanmagan.

Ilmiy muammo şundan iboratki, undirilgan tölovlar va berilgan imtiyozlar tovar guruhlari kesimida oçiq e’lon qilinmaydi. Natijada maişiy texnika segmentidan qonun böyiça undirilişi lozim bölgan tölovlar bilan amalda undirilayotgan tölovlar örtasidagi farqni bevosita körib bölmaydi. Bu farq ölçanmasa, bojxona nazoratini qaysi yönalişga qaratiş kerakligini raqamlar bilan asoslaş qiyin. Mavjud tadqiqotlarda ham bu farq tovar segmentlari kesimida ölçanmagan.

Maqolaning maqsadi maişiy texnika importi böyiça bojxona tölov yuklamasining fiskal uzilişini ölçaş usulini işlab çiqiş va uning asosida segmentning qöşimça fiskal salohiyatini mln AQŞ dollarida baholaşdan iborat. Maqsadga erişiş uçun quyidagi vazifalar qöyilgan: 2016-2025-yillarda butun import böyiça samarali tölov yuklamasi dinamikasini va tölovlarning import qiymatiga elastikligini baholaş; maişiy texnika segmenti importining tarkibi va yillik hajmini aniqlaş; boj, aksiz va QQS stavkalarining ssenariylari böyiça qonuniy yuklamani hisoblab, fiskal uzilişni ölçaş; qöşimça fiskal salohiyatni va uning tarkibini baholaş; bojxona nazorati va statistik hisobotni takomillaştiriş böyiça takliflar tayyorlaş.

Tadqiqot obyekti Özbekistonga maişiy texnika (muzlatgiç, kir yuviş maşinasi, konditsioner) importi va undan undiriladigan bojxona tölovlaridir. Tadqiqot predmeti qonuniy va samarali bojxona tölov yuklamasi örtasidagi farqni ölçaş hamda segmentning qöşimça fiskal salohiyatini baholaş bilan boğliq iqtisodiy munosabatlardir. Tadqiqot gipotezasiga köra, segmentdagi fiskal uzilişning asosiy qismi stavkalar darajasiga emas, imtiyozlar, mahalliy işlab çiqariş uçun butlovçilar importi va bojxona qiymatini kam körsatişga boğliq.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi şundaki, tovar segmenti böyiça fiskal uziliş qonuniy va samarali yuklama örtasidagi farq sifatida ta’riflangan va uni TIF TN pozitsiyalari böyiça yopiq ma’lumotlarsiz, faqat oçiq statistika va normativ stavkalar asosida baholaş usuli taklif etilgan. Natijalardan Bojxona qömitasi xavflarni boşqariş tizimida narx profillarini şakllantirişda, Iqtisodiyot va moliya vazirligi esa budjet ijrosi hisobotini takomillaştirişda foydalanişi mumkin.

ADABIYOTLAR ŞARHI

Tarif stavkasi bilan undirilgan tölovlar örtasidagi farqni xorijiy iqtisodçilar asosan tölovdan böyin tovlaş nuqtai nazaridan örgangan. R. Fisman va S.-J. Wei Gonkongning Xitoyga eksporti va Xitoyning Gonkongdan importi haqidagi mahsulot darajasidagi ma’lumotlarni közgu statistikasi[174] usulida soliştirgan. Ularning hisobiga köra, soliq stavkasi 1 foiz bandga oşganda tölovdan böyin tovlaş taxminan 3 foizga ortadi [6]. Mualliflar böyin tovlaş qiymatni kam körsatiş bilan birga tovarni past stavkali pozitsiyaga notöğri tasniflaş orqali ham sodir bölişini aniqlagan. B. Javorcik va G. Narciso Germaniya va Şarqiy Yevropaning 10 mamlakati örtasidagi savdoni tahlil qilib, tarif stavkasi oşgan sari savdo tafovuti tabaqalaşgan tovarlarda tezroq kattalaşişini körsatgan. Sababi, bunday tovarlarning narxini aniq baholaş qiyin [7]. Maişiy texnika tabaqalaşgan tovarning tipik namunasi: bitta TIF TN pozitsiyasi içida model narxi brend, quvvat va energiya samaradorligi sinfiga qarab farqlanadi.

Özbekistonlik tadqiqotçilar bojxona tölovlarini asosan davlat budjeti daromadlari nuqtai nazaridan örgangan. A.R. Muqimov ekonometrik model asosida import bojining örtaça arifmetik stavkasi 1 foiz bandga oşganda tölovlar 256,1 mlrd sömga kamayişini, soliqqa tortiladigan import 1 mln AQŞ dollariga köpayganda esa 1,554 mlrd sömga oşişini aniqlagan [8]. A.A. Aktamov yiğim samaradorligi koeffitsienti 0,912 dan 0,978 gaça oşganini va 2030-yilda 0,990 ga yaqinlaşişini asoslagan [9]. Z. Bobojonova «Özbekiston temir yöllari» AJ misolida samaradorlikni singulyar va amaliy iqtisodiyotning integratsion mexanizmi asosida oşiriş yöllarini körib çiqqan va davlat iştirokidagi tuzilmalar samaradorligini nazariy mezonlar bilan amaliy körsatkiçlarni birlaştirib baholaşni taklif etgan [10].

Ikki guruh tadqiqotlar turli darajadagi savollarga javob beradi. Xorijiy işlar tovar pozitsiyasi darajasida ançagina aniq natija beradi, lekin ikki mamlakatning batafsil savdo statistikasini talab qiladi. Özbekistonlik mualliflarning modellari butun import böyiça çegaraviy samara va yiğim samaradorligini körsatadi, ammo alohida tovar segmentidagi holatni ajratib bermaydi. Bu işlarda bojxona tölovlari tovar segmentlari kesimida tahlil qilinmagan, qonuniy va haqiqiy yuklama esa alohida ölçanmagan. Közgu statistikasi usulini Özbekistonda qöllaş uçun TIF TN pozitsiyalari böyiça batafsil oçiq ma’lumot kerak, bunday ma’lumot esa hozirça e’lon qilinmaydi. Mazkur maqolada şu boşliq oçiq statistika va normativ stavkalar bilan çeklanadigan soddaroq usul orqali töldiriladi: fiskal uziliş tovar segmenti darajasida, lekin yopiq ma’lumotlarsiz ölçanadi.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda indeks, ssenariy va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Usul tanlovi ma’lumotlar mavjudligiga boğliq bölgan: közgu statistikasi uçun zarur bölgan pozitsiya darajasidagi ma’lumot oçiq emas, şu sababli hisob-kitoblar faqat oçiq statistika va normativ stavkalarga tayandi. Axborot bazasi sifatida Prezidentning bojxona xodimlariga tabrigi [1], Milliy statistika qömitasining taşqi savdo va valyuta kursi ma’lumotlari, maişiy texnika importi böyiça press-reliz [3] va Soliq kodeksidagi

[174]Közgu statistikasi deganda bir mamlakatning eksport ma’lumotlarini savdo hamkori mamlakatning şu tovar böyiça import ma’lumotlari bilan soliştirib, kam deklaratsiya qilingan yoki qayd etilmagan savdoni aniqlaş usuli tuşuniladi.

QQS stavkasi [11] olindi. 2022 va 2024-yillar tölovlari Bojxona qömitasi e’lon qilgan ösiş sur’atlari asosida tiklandi.

Butun import böyiça samarali tölov yuklamasi[175] quyidagiça aniqlandi:

$$SY_t = BT_t / (IM_t \cdot K_t) \cdot 100, \quad (1)$$

bu yerda BT_t undirilgan bojxona tölovlarini (söm), IM_t import hajmini (AQŞ dollari), K_t esa AQŞ dollarining örtaça yillik rasmiy kursini bildiradi. Segment böyiça qonuniy yuklama[176] boj, aksiz va QQS ketma-ket hisoblanişini hisobga olib aniqlandi:

$$SY^{q} = (1 + b)(1 + a)(1 + q) - 1, \quad TT = M_{mt} \cdot SY^{q}, \quad (2)$$


bu yerda b, a va q mos ravişda bojxona boji, aksiz va QQS stavkalarini (QQS stavkasi 0,12 [11]), M_{mt} segment importining yillik qiymatini, TT esa qonuniy taxminiy tölovlarni bildiradi. Segment içida stavkalar pozitsiyalar böyiça farq qilgani uçun boj stavkasi 0,10; 0,20 va 0,30, aksiz esa 0,10 va 0,15 qiymatlarda ssenariy parametri sifatida olindi. Fiskal uziliş[177] va qöşimça fiskal salohiyat quyidagiça hisoblandi:

$$FU = SY^{q} - SY^{f}, \quad \Delta BT = M_{mt} \cdot (SY^{q} - SY^{f}), \quad (3)$$

bu yerda SY^{f} samarali yuklamani bildiradi. Segment importining yillik qiymati yanvar-iyul ma’lumotlarini 12/7 koeffitsientiga köpaytirib baholandi. Bojxona tölovlarining import qiymatiga sezgirligi $\ln BT_t = \alpha + e \cdot \ln(IM_t \cdot K_t)$ tenglamasi bilan olti tayanç yil (2016, 2020, 2022-2025) böyiça eng kiçik kvadratlar usulida baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Samarali yuklama dinamikasi. 2016-2025-yillarda bojxona tölovlari dollar hisobida 1,89 mlrd dan 6,06 mlrd gaça oşgan. Samarali yuklama 2016-yildagi 15,6 foizdan 2020-yilda 11,7 foizgaça tuşgan, keyingi yillarda 12,5-13,5 foiz oraliğida bölgan (1-rasm).



1-rasm. Bojxona tölovlari va samarali tölov yuklamasi dinamikasi, 2016-2025-yillar[178]

[175]Samarali tölov yuklamasi deganda haqiqatda undirilgan barça bojxona tölovlari (boj, import böyiça QQS, aksiz, yiğimlar) ning sömga aylantirilgan import qiymatiga nisbati tuşuniladi.

[176]Qonuniy yuklama bu amaldagi boj, aksiz va QQS stavkalari imtiyozlarsiz töliq qöllanganda import qiymatiga nisbatan undirilişi lozim bölgan tölovlar darajasi.

[177]Fiskal uziliş deb tovar segmenti böyiça qonuniy va samarali yuklama örtasidagi farqqa aytiladi. U foiz bandlarida ölçanadi va imtiyozlar, butlovçilar importi hamda kam baholaş ta’sirini birgalikda ifodalaydi (muallif ta’rifi).

[178]Muallif hisob-kitoblari; manbalar: [1], Milliy statistika qömitasining taşqi savdo va valyuta kursi ma’lumotlari. 2022 va 2024-yillar tölovlari Bojxona qömitasi e’lon qilgan ösiş sur’atlari asosida hisoblangan.

Elastiklik tenglamasi $e = 0{,}931$ natijani berdi (standart xato 0,032, $R^2 = 0{,}995$): importning sömdagi qiymati 1 foiz oşganda tölovlar 0,931 foizga oşadi. Tuşum import bazasiga deyarli proporsional ravişda, lekin undan biroz sekinroq ösadi. 2025-yilda har 1 mln dollarlik importga örtaça 1,609 mlrd söm tölov töğri kelgan.

Segment tarkibi. Maişiy texnika importining asosiy körsatkiçlari 1-jadvalda keltirilgan.


1-jadval.

2025-yil yanvar-iyulda asosiy maişiy texnika tovarlari importi[179]

Tovar	Import, ming dona	Import, mln dollar	Örtaça narx, dollar/dona	Xitoy uluşi (dona), foiz
Muzlatgiçlar	317,1	65,6	206,9	64,9
Kir yuviş maşinalari	306,6	37,1	121,0	83,2
Konditsionerlar	270,0	60,0	222,2	96,3
Jami	**893,7**	**162,7**	**182,1**	**80,6**

Uç tovar böyiça import hajmi 270-317 ming dona, örtaça narx 121-222 dollar oraliğida, importning 80,6 foizi Xitoy hissasiga töğri keladi. Segment importining yillik bahosi 2023-yilda 302,2 mln, PQ-15 qarori kuçga kirgan 2024-yilda 218,9 mln, 2025-yilda (uç tovar böyiça) 278,9 mln dollar bölgan. Şu yillardagi samarali yuklama (12,9; 12,5 va 12,8 foiz) qöllanganda segmentdan taxminiy tölovlar mos ravişda 39,0 mln, 27,4 mln va 35,7 mln dollarni taşkil etadi. Rasmiy diler talabi joriy etilgan yili segment böyiça fiskal baza taxminan 11,6 mln dollarga qisqargan.

Qonuniy yuklama va fiskal uziliş. (2) formula böyiça oltita ssenariy natijalari 2-rasm va 2-jadvalda keltirilgan.



2-rasm. Qonuniy yuklama ssenariylari va 2025-yilgi samarali yuklama[180]

[179]Muallif hisob-kitoblari; manba: Milliy statistika qömitasi ma’lumotlari [3]. Örtaça narx va Xitoy uluşini muallif hisoblagan.

[180]Muallif işlanmasi (2-jadval ma’lumotlari asosida).


2-jadval.

Maişiy texnika importi böyiça qonuniy yuklama ssenariylari va fiskal salohiyat (2025-yil)[181]

Ssenariy	Boj, foiz	Aksiz, foiz	Qonuniy yuklama, foiz	Qonuniy tölovlar, mln dollar	Fiskal salohiyat, mln dollar
1	10	10	35,5	99,1	63,3
2	10	15	41,7	116,3	80,6
3	20	10	47,8	133,4	97,6
4	20	15	54,6	152,2	116,6
5	30	10	60,2	167,8	132,2
6	30	15	67,4	188,1	152,3

Eng past ssenariyda ham qonuniy yuklama samarali darajadan 2,8 baravar yuqori, fiskal uziliş kamida 22,7 foiz bandni taşkil etadi. Samarali yuklama böyiça segmentdan 35,7 mln dollar (0,449 trln söm) tölov undiriladi, minimal qonuniy ssenariyda esa bu summa 99,1 mln dollar bölişi kerak edi.

Fiskal salohiyat tarkibi. (3) formula böyiça minimal ssenariyda qöşimça fiskal salohiyat $278{,}9 \cdot (0{,}355 - 0{,}128) = 63{,}3$ mln dollarni taşkil etadi, bu samarali yuklama böyiça hisoblangan tölovlardan 1,8 baravar köp. Örta va yuqori ssenariylarda salohiyat mos ravişda 116,6 mln va 152,3 mln dollarga yetadi (3-rasm).



3-rasm. Maişiy texnika segmenti fiskal salohiyatining tarkibi (a) va ssenariylar böyiça hajmi (b), 2025-yil[182]

Samarali yuklamani 12,8 foizdan 15,0 foizga, ya’ni 2016-yil darajasiga (15,6 foiz) yaqin körsatkiçgaça oşiriş 2025-yilgi segment importi hajmida atigi 6,1 mln dollar qöşimça tölov beradi. Bu salohiyatning 9,6 foizi. Qolgan 57,2 mln dollar imtiyozlar, mahalliy işlab çiqariş uçun butlovçilar importi va bojxona qiymatini kam körsatiş hissasiga töğri keladi.

[181]Muallif hisob-kitoblari; QQS stavkasi [11] böyiça olingan, boj va aksiz stavkalari muallifning ssenariy parametrlari. Segment importi 278,9 mln dollar, samarali yuklama 12,8 foiz.
[182]Muallif hisob-kitoblari; ustunlar yiğindisidagi 0,1 mln dollarlik farq yaxlitlaş natijasi.

MUHOKAMA

Olingan natijalar kirişda ilgari surilgan gipotezani tasdiqlaydi: segmentdagi fiskal uzilişning faqat 9,6 foizi yuklama darajasiga boğliq. Butun import böyiça baho A.R. Muqimov natijasiga yaqin. 2025-yilda 1 mln dollarlik importga töğri kelgan 1,609 mlrd söm tölov uning modelidagi 1,554 mlrd sömlik çegaraviy samaradan atigi 3,5 foiz yuqori [8]. Elastiklik birdan biroz past bölgani uçun bojxona organlari fiskal natijaga import bazasi orqali deyarli ta’sir qila olmaydi, ularning imkoniyati samarali yuklamani qonuniy darajaga yaqinlaştiriş bilan çeklanadi. Şuning uçun maişiy texnika segmentida bojxona xizmati samaradorligini tuşum hajmi bilan ölçaş töğri bölmaydi. Uni rasmiy importdagi samarali yuklama qonuniy darajaga qança yaqinlaşgani bilan ölçagan ma’qul.

Fiskal uzilişning bir qismi qonuniy asosga ega. Mahalliy işlab çiqaruvçilarga butlovçilar importi böyiça berilgan imtiyozlar sanoat siyosatining ongli tanlovi, ularni «yöqotilgan tuşum» deb hisoblaş notöğri. Qiyinçilik boşqa narsada: imtiyozlar tovar guruhlari kesimida oçiq e’lon qilinmagani uçun uzilişning qaysi qismi imtiyozlarga, qaysi qismi kam baholaşga boğliqligini ajratib bölmaydi. R. Fisman va S.-J. Wei hamda B. Javorcik va G. Narciso tabaqalaşgan tovarlarda kam baholaş va notöğri tasniflaş xavfi yuqori ekanini körsatgan [6; 7]. Maişiy texnika böyiça natijalar bunga mos keladi. Şu bilan birga 1-jadvaldagi narx diapazoni tor va importning katta qismi bitta mamlakatdan keladi, bu deklaratsiyadagi narxning örtaça darajadan oğişini avtomatik aniqlaşni osonlaştiradi. Uzilişning imtiyozlar bilan izohlanmaydigan qismi xavflarni boşqariş tizimida ustuvor nazorat obyekti bölişi kerak.

Usulning bir neçta çeklovi bor. Samarali yuklama segment uçun emas, butun import uçun hisoblangan örtaça qiymat. Xom aşyo va asbob-uskunalarning imtiyozli importi uni pasaytiradi, şuning uçun 63,3 mln dollarlik bahoni salohiyatning yuqori çegarasi deb talqin qiliş kerak. Yillik qiymat yanvar-iyul ma’lumotlarini 12/7 koeffitsientiga köpaytirib olingan va mavsumiylikni hisobga olmaydi. Boj va aksiz stavkalari esa ssenariy parametri sifatida olingan. Agar Bojxona qömitasi TIF TN pozitsiyalari böyiça undirilgan tölovlar va imtiyozlarni e’lon qilsa, bu çeklovlarni bartaraf etiş mumkin böladi. Usulning afzalligi ham bor: u post darajasidagi yopiq ma’lumotlarni talab qilmaydi va segmentdan undirilmagan salohiyatni oçiq statistika asosida miqdoriy körsatib beradi.

XULOSA

1. Bojxona tölovlari 2016-2025-yillarda dollar hisobida 3,2 baravar oşgan, ammo samarali yuklama 15,6 foizdan 12,8 foizga pasaygan. Tölovlarning import qiymatiga elastikligi 0,931 ga teng, ya’ni fiskal ösiş asosan import bazasi va valyuta kursi bilan izohlanadi.

2. Tovar segmenti böyiça fiskal uziliş qonuniy va samarali yuklama örtasidagi farq sifatida ta’riflandi va uni oçiq statistika hamda normativ stavkalar asosida baholaş usuli taklif etildi. Maişiy texnika importida qonuniy yuklama 35,5-67,4 foiz, samarali yuklama 12,8 foiz, uziliş esa kamida 22,7 foiz band.

3. Segmentning qöşimça fiskal salohiyati minimal ssenariyda 63,3 mln dollarga baholandi. Uning atigi 9,6 foizi yuklama darajasini oşirişga boğliq, asosiy qismi

imtiyozlar tarkibi, butlovçilar importi va kam baholaş bilan boğliq.

4. Iqtisodiyot va moliya vazirligiga 2027-yildan budjet ijrosi hisobotida bojxona boji, import QQS, aksiz va yiğimlar tuşumini alohida qatorlarda, Bojxona qömitasiga esa imtiyozlar hajmini TIF TN bölimlari, jumladan 84 va 85-guruhlar kesimida e’lon qiliş taklif etiladi. Bojxona qömitasi 2027-yil 1-iyulgaça örtaça import narxlariga asoslangan narx profillarini xavflarni boşqariş tizimiga joriy etişi va ularni har çorakda yangilab borişi maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RÖYXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston bojxona sohasi xodimlariga tabrigi. (2026, 26-yanvar). https://president.uz/oz/lists/view/8878
2. O‘zbekiston milliy axborot agentligi. (2025, 2-yanvar). Yil sarhisobi: Bojxona qo‘mitasi 2024-yilda qanday yutuqlarga erishdi. https://uza.uz/posts/673972
3. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. (2025). O‘zbekistonga 306,6 ming dona kir yuvish mashinasi import qilingan [Press-reliz]. https://stat.uz/en/press-center/news-of-committee/64085-zbekistonga-306-6-ming-dona-kir-yuvish-mashina-import-ilingan-4
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. (2024, 10-yanvar). Elektrotexnika sanoatining ishlab chiqarish va eksport salohiyatini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida (PQ-15-son). Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. https://lex.uz/docs/-6750813
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. (2025, 25-mart). Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida (PF-57-son). Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. https://lex.uz/docs/-7451997
6. Fisman, R., & Wei, S.-J. (2004). Tax rates and tax evasion: Evidence from “missing imports” in China. Journal of Political Economy, 112(2), 471-500. https://doi.org/10.1086/381476
7. Javorcik, B. S., & Narciso, G. (2008). Differentiated products and evasion of import tariffs. Journal of International Economics, 76(2), 208-222. https://doi.org/10.1016/j.jinteco.2008.07.002
8. Muqimov, A. R. (2026). Davlat budjeti daromadlarini oshirishda bojxona to‘lovlarini undirishni takomillashtirish [Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati]. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti.
9. Aktamov, A. A. (2026). O‘zbekistonda budjet tushumlarini oshirishda bojxona amaliyotini takomillashtirish [Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati]. Toshkent.
10. Bobojonova, Z. (2026). “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJning singulyar va amaliy iqtisodiyotning integratsion mexanizmi asosida samaradorligini oshirish yo‘llari. Muhandislik va iqtisodiyot, 4(6).
11. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. (2019, 30-dekabr). O‘RQ-599-son Qonun bilan tasdiqlangan. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. https://lex.uz/docs/4674011